

QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBLARI

Nazirova Sayyora Baxtiyorovna

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti 2-bosqich tayanch doktaranti.

nazirovasayyora51@gmail.com

Usmonova Suhrob Abdirasul o'g'li

Termiz davlat universiteti Ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi menejeri.

sssuhrobusmonov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14931150>

Annotatsiya. Ushbu maqolada investitsiyalar borasidagi xorijiy tajribalar, mazkur kontseptsionalarning mamlakat iqtisodiy o'sishi, ish o'rinlarining yaratilishi, texnologik taraqqiyot va turmush darajasining oshishi kabi ko'plab muhim omillarga ta'sir etishi haqida so'z boradi.

Maqola orqali turli mamlakatlarning sarmoyaviy tajribalarini o'rganib chiqib, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz investitsiya strategiyalarining sabablarini tushunish, kelajakdagi investitsiya qarorlari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: Sarmoya, investitsion muhit, texnologiya, tajriba, iqtisodiy o'sish, bandlik, strategiya, pul oqimi, samarali kontseptsiya.

FOREIGN EXPERIENCES ON INCREASING INVESTMENT ACTIVITY IN AGRICULTURAL ENTERPRISES

Abstract. This article discusses foreign experiences in investment, the impact of these concepts on many important factors, such as a country's economic growth, job creation, technological progress, and increased living standards. By studying the investment experiences of different countries, you can understand the reasons for successful and unsuccessful investment strategies and gain more information about future investment decisions.

Keywords: investment climate, technology, experience, economic growth, employment, strategy, cash flow, effective concept.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Аннотация. В статье рассматривается зарубежный опыт инвестирования и влияние этих концепций на многие важные факторы, такие как экономический рост страны, создание рабочих мест, технический прогресс и повышение уровня жизни. Изучая инвестиционный опыт разных стран с помощью статьи, можно понять причины успешных

и неудачных инвестиционных стратегий и получить больше информации о будущих инвестиционных решениях.

Ключевые слова: Капитал, инвестиционная среда, технология, опыт, экономический рост, занятость, стратегия, денежный поток, эффективная концепция.

KIRISH:

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishiga hissa qo'shib kelayotgan sohalardan biri qishloq xo'jaligidir. Iqtisodiyotning mazkur tarmog'i ham yuqori salohiyatga ega bo'lib, unda aholi ehtiyojlarini qondirish uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqariladi, qishloq xo'jaligi korxonalarida samaradorlikning oshishi aholi turmush darajasi yaxshilanishini ta'minlaydi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish borasida tub islohotlarning amalga oshirilishi qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy, texnik va moliyaviy salohiyatidan samarali foydalangan holda aholi turmush darajasini oshirishni talab etadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida samaradorlikning oshishi bugungi kunda ularda innovatsiyalarning qo'llanilishi bilan bog'liq. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha turli dasturlar ishlab chiqilib, ular asosida ko'plab loyihalar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu oshirish esa o'z navbatida rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganish kerakligini anglatadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARXI:

Qishloq xo'jaligiga investitsiya jalb qilishning dolzarbligi va ahamiyati borasida qator olimlar izlanishlar olib bormoqdalar. Mamlakatimiz iqtisodchilaridan N.G'. Karimov, R.X. Xojimatov, J.X. Razzoqovlarning (2019-o'quv qo'llanma) fikriga ko'ra "investitsiya" deganda, kelgusida daromad (foyda) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida qonun doirasida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va boshqa sohalariga investorlar tomonidan qo'yiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar hamda ularga doir huquqlar tushuniladi. Boshqacha aytganda, investitsiyalar mulkchilikning har xil ko'rinishlaridagi moddiy, moliyaviy va nomoddiy boyliklarni ijtimoiy-iqtisodiy daromad olish maqsadida muomalaga kiritish hamda ularga doir boshqarishdir.

Yaqin xorij mamlakatlari olimlaridan L.Agaeva, V.Anisimova, M.Brodskiy, G.Litvinseva, M.Nasrutdinov, A.Neshitoy, T.Teplova, V.Chernov, L.Yuzvovich (2018) tomonidan mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligi, hududlarning investitsiya jozibadorligini oshirish omillari, hududlarda investitsiyaviy faollikni ta'minlash yo'llari haqida fikr yuritgan.

TAHLIL VA NATIJA

Har bir mamlakatning o'ziga xos iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tuzilishi investitsiya qarorlarini shakllantiradigan muhim omillardir. Masalan: Iqtisodiy barqarorlik, past inflyatsiya, past foiz stavkalari va o'sib borayotgan iqtisodiyot, siyosiy barqarorlik, huquqiy baza, infratuzilm, ta'lim darajasi, soliq tizimi, tabiiy resurslar salohiyati ham investitsiyalarni rag'batlantirishi mumkin.

Turli mamlakatlarning sarmoyaviy tajribalarini o'rganib chiqib, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz investitsiya strategiyalarining sabablarini tushunish mumkin. Shunday qilib, kelajakdagi investitsiya qarorlari ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Albatta investitsiya samarasi to'g'ri sektorni tanlash, qisqa va uzoq muddatli investitsiyalar uchun manfaatli investitsiya portfeli yaratilishni, risklarni boshqarishva investitsiyalar bilan bog'liq xavflarni diqqat bilan baholash, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va global iqtisodiy integratsiyada ishtirok etish uchun xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni taqazo etadi.

Barcha sohalarda bo'lganligi kabi qishloq xo'jaligi va investitsion faoliyat borasida Germaniya tajribasi bugungi kunda dunyoga mashhur. Germaniya hozirda Yevropa Ittifoqida eng ko'p aholiga ega. Shuningdek, u Yevropaning eng boy davlatlaridan biridir. So'ngi yillarda qishloq xo'jaligi korxonalari soni sezilarli darajada kamaydi. Agar 1975 yilda 904,7 mingta korxona mavjud bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda ular 255,000 taga yetdi. Ammo qishloq xo'jaligi maxsulotlari va texnologiyalari eksporti borasida, shuningdek, o'rim-yig'im mavsumida boshqa mamlakatlardan ishchilarni yollash kabi biznes faoliyatlarida peshqadamlikni qo'ldan bermay kelmoqda. Boshqa tomondan, sanoat va texnologik taraqqiyot o'tgan o'n yilliklarda ko'p mehnat talab qiladigan ishlarni texnalogiyaning o'zaro ta'siri bilan yakunlash imkonini berdi.

Germaniya qishloq xo'jaligi texnikasi bozorining hajmi 2022 yilda 20 milliard AQSh dollarini tashkil etadi va 2023-2031 yillar prognoz davrida CAGR 3,8 foizni tashkil etgan holda 2031 yilga kelib bu ko'rsatgich 3 barobarga kengayishi kutilmoqda. Bozorining o'sishi fermerlarning fermer xo'jaliklarining mahsuldorligini oshirish va oziq-ovqatga bo'lgan talabni qondirish uchun zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirgani bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligi texnikasi dehqonchilik yoki boshqa qishloq xo'jaligi ishlarida foydalaniladigan mashinalardir. Bunday uskunalarning bir nechta turlari mavjud: qo'l asboblari va elektr asboblardan tortib traktorlar va ular quvvatlaydigan yoki tortadigan ko'plab qishloq xo'jaligi asboblari. Organik va noorganik dehqonchilikda turli xil jihozlardan foydalaniladi.

Ayniqsa, mexanizatsiyalashgan qishloq xo'jaligi paydo bo'lgandan beri, qishloq xo'jaligi texnikasi dunyo oziqlanishining ajralmas qismiga aylandi.

Umuman olganda, 2023-yilning iyunidan 2024-yilning mayigacha bo'lgan davrda Germaniyada qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar jami 176,2 ming yevroni tashkil etdi. Investitsiyalarning asosiy qismi "tashqi savdo uchun mashinalar" sohasiga yo'naltirildi. "Qayta tiklanadigan energiya" sohasiga o'rtacha investitsiyalar hajmi 8700 yevroni tashkil etdi.

AQSH qishloq xo'jaligidagi investitsiya siyosati qishloq xo'jaligi sektorini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan siyosat va amaliyotlar majmuasini o'z ichiga oladi. Bu siyosatlar fermerlarni qo'llab-quvvatlash dasturlaridan tortib, savdo qoidalari va tadqiqot va ishlanmalar faoliyatigacha bo'lgan keng ko'lamli sohalarni qamrab oladi.

AQSh qishloq xo'jaligi siyosatining asosiy maqsadlari:

- Oziq-ovqat xavfsizligi:
- Fermerlar daromadlarini qo'llab-quvvatlash
- Qishloq taraqqiyoti:
- Resurslarni saqlash:
- Raqobatbardoshlik:

Asosiy siyosiy ko'makalar fermerlarga to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar, mahsulot narxini qo'llab-quvvatlash, sug'urta va kredit imkoniyatlari kabi turli xil yordamlar taqdim etiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi eksportni rag'batlantirish, import tariflari va savdo shartnomalari orqali tartibga solinadi. Yangi texnologiyalar, mahsulot turlari va qishloq xo'jaligi amaliyotlarini ishlab chiqish uchun tadqiqot faoliyati qo'llab-quvvatlanadi. Tuproq va suv resurslarini himoya qilish, eroziyaning oldini olish va barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotini rivojlantirish uchun turli xil ekologik siyosatlar amalga oshiriladi. Qishloqlarda infratuzilmani rivojlantirish, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish bo'yicha turli dasturlar amalga oshirilmoqda.

2025-yilda o'z tashkilotlari investitsiyasini ko'payish yoki kamyishini aniq ayta oladigan davlatlar (%)

T/R	Mamlakat	Kamaytirish	O'zgarishsiz qoldirish	Yirik kengaytirish
1.	Singapur	23	19	58
2.	Hindiston	24	20	55

3.	AQSH	19	28	53
4.	Yaponiya	28	20	50
5.	Germaniya	29	23	47
6.	Shvetsiya	27	27	45
7.	Fransiya	22	23	54
8.	Daniya	16	31	52

Manba: Investment-Trends-Report

Jadval ma'lumotlaridan ma'lumki dunyo mamlakatlari doimo investitsion salohiyatni oshirishdan manfaatdor. Ammo bu ko'rsatkichlar ichida qishloq xo'jaligi mkorxonalarining ulushi katta emas.

O'zbekiston-Germaniya investitsion aloqalar

Germaniya tashqi savdo aylanmasida O'zbekistonning 10 ta eng yirik hamkor davlatlaridan biri bo'lib, savdo aylanmasi bo'yicha 7 -o'rin, eksport hajmi bo'yicha 19-o'rin va import hajmi bo'yicha 6-o'rinni egallaydi. 2016-2023 yillarda O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2 barobarga oshib, 529,1 million dollardan 1072,3 million dollargacha, eksport hajmi 2,4 barobarga oshib, 36,9 million dollardan 87 million dollargacha, import hajmi 2 barobar oshib, 492,2 million dollardan 986 million dollargacha o'sdi.

O'zbekistonning umumiy tovar aylanmasida Germaniyaning ulushi 2,2 foizdan 1,7 foizga kamaydi, eksportda 0,3 foizdan 0,4 foizga o'sdi, importda 4,1 foizdan 2,6 foizga qisqardi.

2024 yil 1 avgust holatiga ko'ra O'zbekistonda Germaniyadan investorlar ishtirokida 276 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda, ulardan 57 tasi 2024 yil boshidan buyon tashkil etilgan. 2023 yilda Germaniyadan O'zbekistonga investitsiyalar va kreditlar hajmi 757,8 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilning birinchi yarmida bu ko'rsatkich 577,7 million dollarga yetdi. Umuman olganda, Germaniyadan O'zbekistonga kiritilgan investitsiya va kreditlarning to'plangan hajmi 4,5 milliard dollardan oshdi.

O'zbekiston-AQSH iqtisodiy aloqalar

Bugungi kunda O'zbekiston va AQSh o'rtasida mustahkam shartnomaviy-huquqiy baza, jumladan, turli xarakterdagi 100 dan ortiq hujjatlar mavjud. Siyosiy muloqotni mustahkamlash, xususan, mintaqaviy xavfsizlik, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi sohalaridagi hamkorlikni chuqurlashtirish yuzasidan tashqi ishlar vazirliklari aro siyosiy maslahatlashuvlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri savdo-iqtisodiy sheriklikdir. Tomonlar savdo-iqtisodiy aloqalarni doimiy ravishda kengaytirishga intilib, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga harakat qilmoqda. O'zaro savdo so'nggi uch yil ichida o'sib bormoqda. Misol uchun, O'zbekistonning AQSh bilan tovar ayirboshlash hajmi 2022 yil yakuni bo'yicha 436,8 million dollarni (eksport – 68,5 million dollar, import – 368,3 million dollar) tashkil etib, 2021 yilga (426,3 million dollar) va 2020 yilga (277 million dollar) nisbatan oshganligini ko'rsatmoqda.

XULOSA

Investitsiyalar va milliy tajribalar bir-biriga ta'sir qiluvchi murakkab munosabatlarga ega.

Mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga mos keladigan investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish orqali yanada barqaror o'sishga erishishlari mumkin.

Ayniqsa, globallashib borayotgan dunyomizda qishloq xo'jaligiga sarmoya kiritishda xorijiy tajribaning ahamiyati ortib bormoqda. Xorijiy tajriba qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yurituvchi investor va kompaniyalarga ko'plab afzalliklarni taqdim etadi:

1. Yangi bozorlarga kirish: xorijiy mamlakatlarda to'plangan tajriba turli bozorlar haqida bilim beradi. Shunday qilib, yangi mahsulot va xizmatlar uchun potentsial bozorlarni ochish va eksport imkoniyatlarini oshirish mumkin.

2. Ta'minot zanjirini rivojlantirish: Chet el tajribasi turli etkazib beruvchilar bilan muloqot qilish va hamkorlik qilishni osonlashtiradi. Shunday qilib, yuqori sifatli va arzonroq xomashyo sotib olinishi va ta'minot zanjiri yanada samarali bo'lishi mumkin.

3. Texnologik innovatsiyalar: Qishloq xo'jaligidagi texnologik o'zgarishlarni xorijiy mamlakatlarda ham yaqindan kuzatish mumkin. Shu tariqa yangi texnologiya va usullarni o'rganish va o'z biznesida qo'llash, mehnat unumdorligini oshirish mumkin.

4. Raqobat ustunligi: Xorijiy tajriba raqobatchilarga nisbatan sezilarli ustunlik beradi. Turli bozorlar va madaniyatlarda tajriba orttirish raqobatbardoshlikni oshiradi va oldinga intilishni osonlashtiradi.

5. Risklarni boshqarish: Chet el tajribasi sizni turli xavf omillarini tanib olish va boshqarishni o'rgatadi. Shunday qilib, qishloq xo'jaligi sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarga nisbatan yaxshiroq tayyorgarlik ko'rish va yo'qotishlarni minimallashtirish mumkin.

6. Madaniy xabardorlik: Xorijiy tajriba turli madaniyatlarni bilish va tushunish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, turli mamlakatlardagi odamlar bilan yaxshiroq muloqot va hamkorlikka erishish mumkin.

7. Investitsion imkoniyatlar: xorijiy tajriba turli mamlakatlardagi sarmoyaviy imkoniyatlarni o'rganishni osonlashtiradi. Shu tariqa qishloq xo'jaligi sohasida yangi sarmoya yo'nalishlarini aniqlash va rentabellikni oshirish mumkin.

8. Hamkorlik imkoniyatlari: Xorijiy tajriba xalqaro kompaniya va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini oshiradi. Shunday qilib, qo'shma loyihalar ishlab chiqilishi va resurslarga osonroq kirish mumkin.

REFERENCES

1. Xashimov P.Z. Daromadlar tabaqalanishi aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkich sifatida // Iqtisod va moliya. 2020 Xashimov P.Z. Daromadlar tabaqalanishi aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkich sifatida // Iqtisod va moliya. 2020
2. G'ozibekov D. G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Monografiya. – T.: «Moliya», 2003
3. Mustafakulov Sh.I. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: «TDIU», 2017.
4. Investment-Trends-Report
5. Yeşil ihracat stratejisinin öncüllerinin ve sonuçlarının belirlenmesine yönelik keşifsel bir araştırma. Yüksek Lisans Tezi Ankara 2024
6. Инвестиции: учебное пособие для студентов направления «Экономика» / сост. Т.В.Денисова, И.Г.Нуретдинов, Ю.В.Нуретдинова. – Ульяновск: «УлГТУ», 2017.

INTERNET SAYTLARI

7. <https://uz.wikipedia>
8. <https://review.uz>
9. <https://www.cfr.org>
10. <https://openaccess.hacettepe.edu>